

19.20.21.300-00001

8.2.Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.
8.3.Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng huquqiy kuchga ega.
8.4.Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

NEFT MAHSULOTLARINI TO'G'RIDAN-TO'G'RI SOTISH TO'G'RSIDA

42 sonli SHARTNOMA

2022 y. "5" yanvar

Qarshi sh.

9. Neft mahsulotlarini yetkazib berish tafsilotlari

Neft mahsulotining nomi, rusumi	O'Ich ov bir- ligi	Narxi	Yillik miqdori	Summasi	Shu jumladan choraklar bo'yicha			
					I	II	III	IV
Shayx Ali	TOH	11251570	2	22503140	2			

Keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataluvchi "Qarshi neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor v.v.b O.Ro'ziev bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi "Yaqinchi Tashkilot" nomidan nizom asosida ish yurituvchi "D. Oltin" ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

a. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini quyush va yuklab berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmlariga oladilar.

b. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spesifikasiya orqali belgilab oladilar.

Spesifikasiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarini shakllantirishda, «Sotuvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

10. TOMONLARNING Yuridik MANZILLARI

“SOTUVCHI”

“Qarshi neft bazasi” MChJ
Qarshi shahri Shayx Ali qo'rg'oni

INN: 200672124 MFO: 00432
OKONX: 80190
H/r: 20210000100530160001
O'z Sanoat Qurilish bank
Yashnobod filiali

Direktor v.v.b. O.Ro'ziev



“ISTE'MOLCHI”

Yaqinchi Tashkilot 2-404 Kant-200000
Moliya g'aznachisi Fozilxonov
BIP 28402000300120001010
Ush-20112219 MFO-00004
UshP-4001100101024409240079002
Ush-20700026



2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi so'mni tashkil qiladi.

2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Sotuvchi» tomonidan ularni neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan (avtobenzin va dizel yonilg'isi bo'yicha yakuniy iste'molchiga sotilganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i hisobga olinmagan holda) shakllanadi.

2.3. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Sotuvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarini qo'llashi mumkin.

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Sotuvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.5. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ga o'z transport vositasida neft mahsulotini yetkazib berganda «Iste'molchi» transport xizmati uchun xaq to'laydi.

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Sotuvchi»ning omboridan yoki unga qarashli yoqilg'i quyush shaxobchalaridan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Sotuvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtosisternalar (Iste'molchi)ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Sotuvchi»ning yoki uning bo'limlari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2517-2012 davlat standartiga) mos tarzda tang'alanadi.

3.4. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmاسligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Sotuvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollari miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollari sifati jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnoma hamda boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Sotuvchi»ning omborida yoki unga qarashli AYoQShda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Sotuvchi» ombori yoki AYoQSh hududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Sotuvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan hujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish huquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. «Sotuvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Sotuvchi» neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Sotuvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qirg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo'lganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

8. BOSHAQ SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi.